

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-184-1

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 13-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-184-1

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Salimova Hilola

SUG'ORILADIGAN O'TLOQI-TAQIR TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY TAVSIFI VA OZIQ
MODDALAR ZARHIRASI (G'ijduvon tumani misolida)5-10

IQTISODIYOT FANLARI

Kadirova Shaxnoza

YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARNING
SALOHIYAT IMKONIYATLARINI BOSHQARISH 11-14

YURIDIK FANLARI

Rahmonov Abbos

ISTE'MOLCHILARGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY
JAVOBGARLIKNING XALQARO TAJRIBADAGI SHAKLLARI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI
BILAN SOLISHTIRMA TAHLILI 15-18

Ernazarova Feruza

SHAXSNI ERKIN RIVOJLANTIRISH HUQUQI: O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA
IFODALANISHI VA XALQARO HUQUQIY NORMALAR BILAN UYG'UNLIGI 19-22

Donayeva Aziza

"ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA SUN'IY INTELLKTN HUQUQIY TARTIBGA
SOLISH" 23-29

Sobirov Temur

AUTSORSING, AUTSTAFFING VA XODIMNI BOSHQA ISH BERUVCHIGA VAQTINCHA XIZMAT
SAFARIGA YUBORISH: HUQUQIY ASOSLAR,
TA'RIFLAR VA O'ZBEKISTONDAGI AMALIYOT 30-34

Тогаймуродова Камола

ИСТОРИКО-ПРАВОВОЕ РАЗВИТИЕ ИНСТИТУТОВ НОТАРИАТА И ГОСУДАРСТВЕННОЙ
РЕГИСТРАЦИИ СДЕЛОК 35-38

Бобоева Муслима

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОСПОСОБНОСТИ И ДЕЕСПОСОБНОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ 39-42

Tuymayev Asadbek

MEHNAT NIZOLARIDA DA'VO MUDDATLARI MILLIY VA XORIJIY QONUNCHILIK 43-46

Nizomova Khosiyatkhon

PROHIBITION OF DISCRIMINATION IN NATIONAL LABOR LAW 47-49

Qadamov Javohirbek

RAQAMLI MAKONDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA
QILISHNING HUQUQIY JIHATLARI 50-55

Ergashova Mamura

MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISHDA SUD TARTIBINING USTUVORLIGI: QONUNCHILIK
NAZARIYASI VA SUD AMALIYOTI 56-60

Isaqlulova Elmira

SMART-KONTRAKTLAR TERMINOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA AHAMIYATI 61-66

<i>Амирова Умида</i>	
ПРОБЛЕМЫ ПРИОБРЕТЕНИЯ СТАТУСА АДВОКАТА ИНОСТРАННЫМИ ГРАЖДАНАМИ	67-70
<i>Xursanov Shamsiddin</i>	
XALQARO SAVDODA BARQAROR RIVOJLANISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR	71-74
<i>Fayziyev Hayriddin, Zokirkonov Zoxidjon</i>	
MEHNAT MUNOSABATLARIDA ATTESTATSIYA VA UNING HUQUQIY AHAMIYATI	75-78
<i>Исомухамедова Мадина</i>	
ОСНОВНЫЕ ФОРМЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ С ПОМОЩЬЮ ТРЕТЬЕГО ЛИЦА: МЕДИАЦИЯ, ПРИМИРЕНИЕ И АРБИТРАЖ КАК ПРОЦЕСС, СПОСОБСТВУЮЩИЙ ПРЕКРАЩЕНИЮ КОНФЛИКТОВ	79-83
<i>Абдурахмонов Асадбек</i>	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ	84-87
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Арипджанова Фарзона</i>	
ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ И ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ СД 2 ТИПА С МЕТАБОЛИЧЕСКИ АССОЦИИРОВАННОЙ ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПЕЧЕНИ (МАЖБП)	88-92

MEHNAT NIZOLARIDA DA'VO MUDDATLARI MILLIY VA XORIJIY QONUNCHILIK

Tuymayev Asadbek Sobirjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistratura bosqichi talabasi

E-mail: asadbektuymayev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda mehnat nizolari tushunchasi va ularning turlari, mehnat nizolarining kelib chiqish sabablari, milliy qonunchilikka ko'ra mehnat nizolarida da'vo muddatlari, xorijiy qonunchilikka ko'ra mehnat nizolarida da'vo muddatlari, da'vo xususiyatiga va da'vosiz xususiyatga ega bo'lgan nizolar, da'vo muddatlarini qo'llashga oid milliy va xorijiy tajribadagi muammolar. Shuningdek, tezisda mazkur sohada yuzaga kelayotgan muammolar yuzasidan amaliy misollar hamda ushbu sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlili keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Mehnat nizolari, yakka tartibdagi mehnat nizolari, jamoaviy mehnat nizolari, sud qarorlari, mehnat qonunchiligi, da'vo xususiyatiga va da'vosiz xususiyatga ega bo'lgan nizolar, nizolarni hal etish mexanizmlari, da'vo muddatlari, da'vo muddatlarini qo'llashga oid muammolar.

PERIODS OF LIMITATION IN LABOR DISPUTES IN NATIONAL AND FOREIGN LEGISLATION

Tuymayev Asadbek Sobirjon ogli

Master's Degree Student

Tashkent State University of Law

Abstract. This thesis explores the concept and types of labor disputes, the causes of their emergence, the statute of limitations in labor disputes under national legislation, and the statute of limitations in labor disputes under foreign legislation. It also examines disputes of a claim-related nature and those not involving claims, as well as the problems encountered in the application of limitation periods in national and international practice. Furthermore, the thesis provides practical examples of issues arising in this field and analyzes the relevant normative legal documents.

Keywords: labor disputes, individual labor disputes, collective labor disputes, court decisions, labor legislation, claim-based and non-claim-based disputes, dispute resolution mechanisms, statute of limitations, problems in applying limitation periods.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-184-1/uzb-9>

Mehnat munosabatlari har bir insonning hayotida muhim rol o'ynaydi. Chunki jamiyatdagi deyarli barcha insonlar albatta mehnat munosabatlariga kirishishadi xoh ish beruvchi xoh xodim sifatida. Ijtimoiy huquqiy munosabat bor joyda esa albatta nizolar ham kelib chiqishi mumkin. Ish beruvchi va xodim o'rtasida kelib chiqadigan nizolar esa ko'plab insonlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Mehnat nizolarini sudgacha hal etish va sudda ko'rib chiqish uchun da'vo muddatlarining belgilanishi esa xodim va ish beruvchilarning huquqlarini himoya qilish uchun muhim rol o'ynaydi. Yakka va jamoalarga oid mehnat nizolarini qonuniy ko'rib chiqish va hal etish, fuqarolarning buzilgan mehnat huquqlari va erkinliklarini tiklash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mehnat huquqiy munosabatlari doirasida yetkazilgan zararlarining o'rnini qoplash, va hatto mehnat sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish bugungi kunda sud hokimiyatining oldida

turgan muhim vazifalardan biridir. Mehnat nizolarida da'vo muddatlari esa buzilgan huquqlarni tiklash uchun muhim rol o'ynaydi.

Da'vo mudati — shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga ko'ra umumiy da'vo mudati uch yilni tashkil qiladi[1].

Mehnat kodeksi 554-moddasiga ko'ra xodim mehnat nizolari bo'yicha komissiyaga o'z huquqi buzilganligi to'g'risida bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan e'tiboran olti oylik muddat ichida murojaat qilishi mumkin. Mehnat kodeksi 560-moddasiga ko'ra, Yakka tartibdagi mehnat nizosining ko'rib chiqilishi uchun sudga murojaat qilishning quyidagi muddatlari mavjud:

ishga tiklash to'g'risidagi nizolar bo'yicha — xodimga u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi ish beruvchi buyrug'ining ko'chirma nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran uch oy;

xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi nizolar bo'yicha — ish beruvchi zarar yetkazilganligini aniqlagan kundan e'tiboran bir yil;

boshqa mehnat nizolari bo'yicha — xodim o'zining huquqi buzilganligi to'g'risida bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan e'tiboran olti oy.

Xodimning hayotiga va sog'lig'iga yetkazilgan ziyonning o'rnini qoplash to'g'risidagi nizolar bo'yicha, shuningdek xodimga yetkazilgan ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish haqidagi nizolar bo'yicha sudga murojaat etish muddati belgilanmaydi.

Yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiqish bo'yicha sudga murojaat etish muddatining o'tishi yakka tartibdagi mehnat nizosini mediatsiya tartibida ko'rib chiqish davrida to'xtatib turiladi[2]. Ushbu muddatlar jamoaviy mehnat nizolari uchun ham qo'llaniladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilangan da'vo muddatlaridan ham ko'rinib turibdiki nizoning turiga qarab da'vo muddatlari ham har xil bo'ladi va har bitta nizo uchun da'vo muddati aniq belgilangan. Da'vo muddatlarining huquqiy aniqligini ta'minlash esa, sud ishlarining ko'payishining oldini olish va nizolarni o'z vaqtida hal qilish uchun muhim rol o'ynaydi.

Mehnat nizolari — bu ish beruvchi va xodim o'rtasida yoki xodimlar (ularning vakillari) va ish beruvchilar (ularning vakillari) o'rtasida mehnat to'g'risidagi qonunchilikni, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarni va mehnatni muhofaza qilish qoidalarini, mehnat shartnomasini qo'llash masalalari bo'yicha, shuningdek yangi mehnat shartlarini belgilash yoki mavjud mehnat shartlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha tartibga solinmagan kelishmovchiliklardir[3]. O'zbekiston Respublikasida Mehnat nizolari tegishli fuqarolik ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Mehnat nizolari subyektning tarkibiga qarab yakka tartibdagi yoki jamoaviy bo'lishi mumkin.

Yakka tartibdagi mehnat nizolari — bu ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat to'g'risidagi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini qo'llanish yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklardir. Ish

beruvchi va xodim o'rtasidagi quyidagi masalalar bo'yicha tartibga solinmagan kelishmovchiliklar yakka tartibdagi mehnat nizolaridir:

Umuman olganda yakka tartibdagi mehnat nizolari deyilganda ish beruvchi va xodim o'rtasida vujudga kelgan har qanday mehnat nizolari tushuniladi.

Jamoaviy mehnat nizolari — bu xodimlar guruhi (ularning vakillari) va ish beruvchi (yoki ish beruvchilar birlashmasi) o'rtasida mehnat shartlari, jamoa shartnomalari, mehnatni muhofaza qilish qoidalari, ish haqi tizimi kabi masalalar bo'yicha kelib chiqqan kelishmovchiliklar hisoblanadi. Bular yakka tartibdagi mehnat nizolaridan farqli o'laroq, butun jamoa yoki uning vakillari bilan bog'liq bo'lib, mehnat qonunchiligining to'g'ri qo'llanilishi yoki yangi shartlarni belgilash talablarini o'z ichiga oladi. Jamoaviy nizolar xodimlarning umumiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida yuzaga keladi. Masalan, ish haqining pasayishi, ish vaqtining o'zgartirilishi yoki kasaba uyushmalarining vakolatlari cheklanganligi kabi holatlar. Nizolar ko'pincha jamoa shartnomasini tuzish, o'zgartirish yoki uni bajarmaslik bilan bog'liq bo'ladi. Bunda ish beruvchi xodimlar vakillari bilan kelishuvga erisha olmaganida nizo yuzaga chiqadi.

Da'vo muddatlarini xorijiy qonunchilik hujjatlariga ko'ra, xususan, Germaniya, Aqsh, Janubiy Koreya qonunchiligiga ko'ra tahlil qiladigan bo'lsak, Germaniya fuqarolik kodeksi 195-moddasiga ko'ra ham umumiy da'vo muddati 3 yilni tashkil qiladi. Xodim va ish beruvchi o'rtasida vujudga keladigan ish haqi nizolari uchun 3 yil, jarohatlar sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun 30 yil, ishga tiklash to'g'risidagi nizolar bo'yicha da'vo muddati ishdan bo'shatish to'g'risida yozma xabarnoma olingan kundan boshlab 3 haftani tashkil qiladi[4].

Aqsh ko'plab shtatlardan tashkil topganligi sababli har shtatning qonunchilik hujjatlari bir-biridan farq qiladi va da'vo muddatlari ham turli xil. Yakka tartibdagi va jamoaviy mehnat nizolari uchun umumiy da'vo muddati 1 yildir. Mehnat nizolarini Mehnat arbitrajida ko'rib chiqishda da'vo muddati 6 oydan 9 oygacha hisoblanadi. Fair Labor Standards Act (FLSA)-Adolatli mehnat standartlari to'g'risidagi qonunga ko'ra to'lanmagan minimal ish haqi yoki qo'shimcha ish vaqti bilan bog'liq ko'pgina da'volar uchun da'vo muddati odatda ikki yil, lekin agar buzilish qasddan amalga oshirilgan bo'lsa, u uch yilgacha uzaytiriladi. Equal Employment Opportunity Commission (EEOC) Teng bandlik imkoniyatlari komissiyasi da'volari: Kamsitish ayblovi bo'yicha da'vo taxmin qilinayotgan kamsitish sodir bo'lgan kundan boshlab 180 kalendar kun ichida berilishi kerak, bu muddat agar shtat yoki mahalliy organ xuddi shu turdagi kamsitishni taqiqlovchi qonunni qo'llasa, 300 kungacha uzaytirilishi mumkin. Kaliforniya shtatini misol qilib oladigan bo'lsak, Ish haqi va ish vaqti buzilishlari: Kaliforniya Mehnat komissari idorasi minimal ish haqi buzilishlari, ushlab qolingan qo'shimcha ish vaqti, noqonuniy chegirmalar, tanaffuslarni rad etish va to'lanmagan bonuslar yoki komissiyalar uchun uch yillik da'vo muddatini qo'llaydi.

Yozma ish haqi shartnomalari: Da'volar buzilishdan keyin to'rt yil davomida berilishi mumkin.

Kutish vaqti jazolari: Kaliforniya Mehnat kodeksining 203-moddasiga muvofiq uch yillik da'vo muddatiga ega[5].

Janubiy Koreyada turli xil mehnat nizolari uchun da'vo muddatlari farq qiladi:

Ish haqi da'volari Ish haqi da'volari uchun da'vo muddati uch yil bo'lib, Mehnat standartlari qonuni bilan qamrab olingan barcha bandlarga, masalan, bonuslar, qo'shimcha ish haqi, pullik ta'til va pensiya to'lovlariga nisbatan qo'llaniladi.

Mehnat qonuni buzilishlarini jinoiy javobgarlikka tortish Ish haqini ushlab qolish kabi mehnat qonuni buzilishlarini jinoiy javobgarlikka tortish uchun da'vo muddati besh yil. Jinoiy ta'qib qilish uchun boshlanish nuqtasi jinoiy harakat tugagan kun, ish haqi yoki pensiya nafaqasi to'lov sanasidan keyin 14 kungacha.

Adolatsiz mehnat amaliyotlari Adolatsiz mehnat amaliyotlari uchun himoya so'rovi adolatsiz mehnat amaliyoti sodir bo'lgan kundan boshlab uch oy ichida berilishi kerak.

Nohaq ishdan bo'shatish Xodimlar nohaq ishdan bo'shatish holatlarida mehnat tribunaliga murojaat qilish uchun Mehnat standartlari qonunining 28-moddasiga muvofiq uch oy vaqtga ega.

Noqonuniy ishchi jo'natishga asoslangan zarar da'vosi Huquqbuzarlik da'vosi uchun da'vo muddati (i) jabrlanuvchi zarar va huquqbuzar haqida xabardor bo'lgan kundan boshlab uch yil va (ii) huquqbuzarlik harakati sodir etilgan kundan boshlab o'n yil.

Kamsitish Kamsitishga uchragan doimiy bo'lmagan ishchi sodir bo'lgan kundan boshlab olti oy ichida kamsitishni tuzatish uchun ariza berishi mumkin[6].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Hamroqulov B. Mehnat nizolarini hal etish, o'quv qo'llanma 2022.
2. Rahimqulova L. Yakka mehnat nizolarini ko'rib hal qilish tartibi. Dissertatsiya. 12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta'minot huquqi. 2021. B.56-57.
3. <https://www.ihk.de/hamburg/en/fairplay/business-law/limitation-actions-german-law-1159426>
4. https://klabor.co.kr/main/klabor_04_view.html?pgubun=8&lang=en&find=&chapter_idx=444&items_idx=6934
5. https://www.kimchang.com/en/insights/detail.kc?sch_section=4&idx=27526
6. https://www.rechtaktuell.org/rechner/fristenrechner-fuer-kuendigungsschutzklage/?utm_source=chatgpt.com
7. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi.
8. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyunda qabul qilingan "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 13-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM
ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
– Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 13-iyun

ISBN 978-9910-09-184-1

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.